

XIVA — XORAZM VOHASINING QADIMIY TARIXIY VA ME'MORIY MARKAZI

Umirova Gulnoza Jumanazarovna

Shahrisabz davlat muzey-qo'riqxonasi bo'lim boshlig'i

Abduraximova Hushnida Xamdam qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 4-bosqich talabasi

Shahrisabz davlat muzey-qo'riqxonasi katta ilmiy xodimi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xiva shahrining tarixiy shakllanishi, shaharsozlik xususiyatlari hamda me'moriy yodgorliklari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, Ichan-qal'a majmuasi, uning arxitektura ansambllari, masjid, madrasa, maqbara va minoralarning tarixiy ahamiyati yoritilgan. Xiva shahrining Buyuk Ipak yo'lidagi o'rni, uning madaniy merosi va qadimiy shahar sifatidagi rivojlanish jarayoni tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Xiva shahri, Ichan-qal'a, Xorazm vohasi, me'moriy yodgorliklar, shaharsozlik, Buyuk Ipak yo'li, madaniy meros, madrasa, masjid, maqbara.*

Annotation. *This article discusses the historical development of the city of Khiva, its urban planning features, and architectural monuments. It highlights the Ichan Kala complex, its architectural ensembles, mosques, madrasas, mausoleums, and minarets, as well as their historical significance. The role of Khiva on the Great Silk Road and its importance as a unique cultural and historical heritage city are also analyzed.*

Keywords: *Khiva city, Ichan Kala, Khorezm oasis, architectural monuments, urban planning, Great Silk Road, cultural heritage, mosque, mausoleum.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются историческое развитие города Хивы, особенности его градостроительства и архитектурные памятники. Освещается архитектурный комплекс Ичан-кала, а также историческое значение мечетей, медресе, мавзолеев и минаретов. Анализируется роль Хивы на Великом шелковом пути и её значение как уникального культурно-исторического города.*

Ключевые слова: *город Хива, Ичан-кала, Хорезмский оазис, архитектурные памятники, градостроительство, Великий шелковый путь, культурное наследие, медресе, мечеть, мавзолей.*

Xiva - Xorazmning o'ziga xos iqlimi (sahroga yaqinligi), aholining joylashishi, shaharlarning rivojlanishiga va uy-joylarning shakliga yaxshigina ta'sir qilgan. Qadimda aholi sug'orish tarmoqlariga yaqin joyda yashagan. Daryo o'zanining o'zgarishi natijasida shaharlarning ko'chish voqeasi Xorazm tarixida ko'p uchraydi.⁶⁵

⁶⁵ <https://oefen.uz>

Xiva qadimiy quduq – «Xey-vak» nomi bilan bog'liq. Bazi olimlar mazkur quduqning nomi «xey-vak», yani mamnuniyat kitobi deb hisoblasalar, yani bazilari xayva yoki xavak holi, quruq so'zlaridan olingan deb hisoblaydilar.⁶⁶ Xiva — muzey-shahar, lekin Rim shahri kabi aholi yashaydigan shahardir. Sharqning ko'pgina shaharlari kabi Xiva Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Xeyvak nomli suv havzasi yonida barpo etilgan bo'lib, Xorazm vohasining sug'oriladigan yerlarida rivojlanib kelgan. Arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, shahar kamida 2500 yoshga kirgan. Bularning hammasi YUNESKO tashkilotiga Xivani qo'riqxonahamiatidagi shahar deb e'lon qilishga, shaharning ichki qismi bo'lgan Ichan-qal'ani esa jahon ahamiyatidagi tarixiy yodgorlik deb e'tirof etishga asos bergan. «Avesto» kitobi Xorazm to'g'risida tarixiy ma'lumotlar beradi. «Tarixning otasi» deb sanalgan Gerodot Xorazm va xorazmliklar to'g'risida gapirib o'tgan edi. Beruniy esa Xorazmdagi qadimiy dehqonchilik to'g'risida hikoya qilgan. Xiva — tarixiy qurilish, butunligicha bino va inshootlar, aslida ochiq havodagi butun bir shahar amalda tarixiy holda saqlanib qolgan dunyoning bir nechtagina shaharlaridan biridir.

XVIII asr oxiri — XIX asr o'rtasidagi Xiva shahrining monumental inshootlari go'yoki qaytadan barpo etilgan shaharni hosil qilgan bo'lib, u bizni bor-yo'g'i ikki-uch avlod ustalarning hayoti davomida qurilishi tezligi bilan hayratda qoldiradi. Ichan-qal'adagi Juma masjidi ham XVIII asrning oxirida qayta qurilgan, lekin u Sharqning klassik inshootlarining qator xususiyatlarini o'zida saqlab qolgan. Bu o'ziga xos bir qavatli binoning old kirish portallari, gumbazlari va dumaloq arkalari yo'q, u eramizning X- XVII asrlarida yaratilgan 213 dona yog'och naqshinkor ustunlarga tayanadigan yassi tomli ulkan zaldir. Ularning o'lchamlari, shakllari va bezaklari turlicha bo'lib, aynan ular masjidning yuksak badiiy qiymatini namoyon etadi. Olimlarning fikricha, ushbu xususiyatlarning barchasi bu masjidni Arabistondagi qadimiy masjidlariga yaqinlashtiradi. Madrasalardan eng yirigi — Muhammad Aminxon madrasasidir. Uning o'ziga xos xususiyatlari — ikkitalik hujralardir. Old devorlarning naqshli bezatilishida rangli g'ishtin termalarning qatlamlari hamda o'simlik tusidagi naqshlar bo'lgan mayolika bilan qoplangan bezaklar kiritilgan. Eshiklar va panjaralar ajoyib o'yma naqshlar bilan bezatilgan. O'rta asrlar shaharlarini tashqi devorlar va minoralarsiz, shahar ichidagi ark qal'asisiz tasavvur qilish qiyin. Xiva shahri ham shunday. Ichan-qal'a avvaldan uni himoya qiladigan ulkan qal'a devorlari bilan o'ralgan edi. XIX asr o'rtasida esa Xivaning atrofida o'nta darvozasi bo'lgan yangi qal'a devorlari bunyod etilgan. Shundan e'tiboran shaharning ushbu kattaroq halqasi Dishan-qal'a, yoki «tashqi qal'a» deb nomlanadigan bo'ldi. Xivaning ma'naviy hayotida muqaddas joylar — mozorlar va maqbaralar alohida o'rin tutgan. Ayniqsa e'tiborli sajdagohlardan biri — kasbi ko'nchi bo'lgan, jismi pahlavon, ruhi faylasuf, ko'ngli shoir bo'lgan Pahlavon Mahmud ismli ulug'vor zotning maqbara majmuasidir. Vafot etganidan keyin xalq uni pir — Xiva shahrining muborak homiyi sifatida e'tirof etgan. Astasekin Pahlavon Mahmudning go'ri atrofida xonlar urug'iga daxldor kishilarning go'rlari joylashgan mozor yuzaga keldi, keyin esa maqbaraga tegishli inshootlarning yirik majmuasi

⁶⁶ Xiva turar-joy binolarining o'ziga xos xususiyatlari va uning rivojlanish tarixi A.A.Atamuratov R.A.Jumaniyozova
Maqola 3-5-betlar

barpo etildi, ular yozgi va qish mavsumidagi masjidlarni, ma'arakalar uchun mo'ljallangan inshootni va Qur'on o'qish xonalarini o'z ichiga oladi. Shahar «Xorazm vohasining durdonasi» nomiga sazovor bo'lgani bejiz emas. O'zining gullab-yashnagan davrida Xorazm davlati xalqaro savdoning eng yirik markazi, Buyuk Ipak yo'lining asosiy ahamiyatga ega bo'lgan qismi edi. Bu yerga Volgabo'yidan, Hindiston, Eron davlatlaridan savdogarlar kelar edi, savdo karvonlari bu yerdan Yaqin Sharqqa, Sharqiy Turkiston va Xitoyga ketar edi. Xivadan turli-tuman savdo yo'llari Mo'g'ulistonga, Qozog'iston dashtlari orqali Volga irmog'idagi shahri bo'lgan Saksin shahriga, undan rus knyazliklari va Yevropaga olib borar edi. Arxeologlar qadimiy karvon yo'llarining yangi-yangi yo'nalishlarini, jumladan, Xorazmdan Mang'ishloq tomonga va u yerdan dengiz orqali Quyi Volga bo'yiga yo'nalishlarni ochmoqdalar. Bu xivalik savdogarlar Markaziy Osiyo davlatlarining Sharqiy Yevropa bilan olib borgan savdosining katta qismini o'z qo'llariga olganligidan dalolat beradi. Kechqurun qorong'i tushganda va oy – musulmonlarning muqaddas ramzi minoralarning tepalarini, masjidlar gumbazlari va madrasa darvozalarini jozibali nuri bilan yoritganda xuddi sehri shaharga kelib tushgandek ko'rinadi. Xiva shunday afsonaviy shahardir.⁶⁷ Hozirgi Xiva shahrida saqlanib qolgan qadimiy me'morchilik inshootlari asosan xonliklar davrida qurilgan bo'lib, eng qadimiysi XVI-asrda qurilgan Sayid ota maqbarasi bo'lsa, eng keyingisi XX asr boshlarida qurilgan Nurillaboy saroyidir. Ichan qal'adagi o'nlab imoratlarining ko'pchiligi XIX asrda qurilgan bo'lib, ular xalqimiz buyuk zakovatining bir qismi sifatida qad ko'tarib turibdi.⁶⁸ Xivani yoshini aniqlash maqsadida akademik A.Asqarov Ichan qal'ada arxeologik qazishma ishlarini olib borgan. Tadqiqotlar davrida 7 m chuqurlikda shaharning qadimiy qatlamlari topilgan. Madaniy qatlamning 10 ta qurilish gorizontiga bo'linganligi va u qatlamdan olingan topilmalar natijalariga ko'ra Xivaning yoshi 2500 yilga teng ekanligi aniqlangan. Buyuk ipak yo'lida joylashgan Xiva XVI asrdan boshlab Xorazm davlatining poytaxtiga aylangan. U shaharda so'nggi feodal davri va zamonaviy arxitekturaning ajoyib madaniy meros obyektlari bir butunlikda joylashgan. Qal'aning ichki shahri - Ichan qal'adagi madaniy meros obyektlari o'rta asrlar arxitekturasining monumental va bir vaqtning o'zida sodda shakllarini ochib bergan. Qal'aning mustahkam devorlar bilan o'ralishi minoralar, arxitekturaviy inshootlar va tekis tomi, yog'och sinchli loyshuvoq uylar bir butunlikda hozir ham o'rta asrlardagi Markaziy Osiyo davlatlari shaharlarini eslatadiganday bo'ladi. Xivaning eng qadimgi qismi - Ko'hna Ark (Tepada Oq shayx buva hujrasi ko'rinib turibdi) Xivaning arxitektura qiyofasi asosan XVIII asrning oxirlaridan XX asrning boshlarigacha shakllangan. Dastlab hukmron doiralar maskani. ularning saroy, madrasa, maqbara, masjidlari to'plangan Xiva, Ichan qal'a (shahriston) arxitektura ansamblarining yaxlitligi bilan boshqa shaharlaridan ajralib turadi. Xiva sharqning shahristonlari tarzida rejalashtirib qurilgan. O'zaro ko'ndalang kesishgan ikki katta ko'cha, shu jumladan to'rt darvoza orqali rabotga - Dishan qal'aga chiqilgan. Dishan qal'ada kosib - hunarmandlar, savdogarlar va boshqalar yashaganlar. Xiva to'g'ri to'rtburchak tarhli shahriston - ichki shahardir. Markaziy Osiyoning boshqa shaharlaridan farqli o'laroq, devorlari

⁶⁷ <https://uztarix.narod.ru>

⁶⁸ "O'zbekiston tarixi" R.H.Murtazayeva "Yangi asr avlodi" Toshkent-2003 329-bet

deyarli butunligicha saqlangan. Shahriston tomonlarining o'rtalarida bittadan darvozalar qurilganki. bu yechim jahon shaharsozligining sinalgan usuli hisoblanadi. Qadimgi Rim istehkomlarida ham shu uslub qo'llanilgan. Xivaning muhim arxitektura yodgorliklari qatorida Ko'hna Ark, Juma masjid, Oq masjid, Uch avliyo maqbarasi, Sherg'ozixon maqbarasi, Olloqulixon maqbarasi, karvonsaroyi va timi, Qutlug' murod Inoq madrasasi, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Muhammad amin Inoq madrasasi, 163 xonadan iborat Toshhovli saroyi va boshqa inshootlarni keltirish mumkin Xivalik naqqoshlar, koshinkorlar saroy, madrasa va maqbaralarni yuksak did bilan tosh, ganch, yog'och o'ymakorligidan foydalanib bezaganlar. Ichan qal'a qurilishida Markaziy Osiyoda qadimdan qo'llanib kelingan uslub - inshootlarni yuzma-yuz qurish uslubi (qo'sh) dan foydalanilgan. Binolarning alohida ansambl holida qurilishi ham Xiva me'morchiligining o'ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi. Xiva me'moriy obidalarining ko'plari va e'tiborlilari mazkur ko'cha negizida vujudga kelgan. Ular Polvon darvoza tarafidagi qator inshootlar va ularning tarkibidagi Olloqulixon arki - toshhovlidir.⁶⁹

FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR:

1.<https://oefen.uz>

2.Xiva turar-joy binolarining o'ziga xos xususiyatlari va uning rivojlanish tarixi
A.A.Atamuratov R.A.Jumaniyozova Maqola 3-5-betlar

3.<https://uztarix.narod.ru>

4."O'zbekiston tarixi" R.H.Murtazayeva "Yangi asr avlodi" Toshkent-2003 329-bet

5.M.M.Vaxitov. Sh.R.Mirzayev. "Me'morchilik" "Tafakkur" nashriyoti Toshkent 2010.
226-237-betlar

⁶⁹ M.M.Vaxitov. Sh.R.Mirzayev. "Me'morchilik" "Tafakkur" nashriyoti Toshkent 2010. 226-237-betlar